

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI

OLIIY TA'LIM, FAN VA INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI

FARG'ONA DAVLAT UNIVERSITETI

**FarDU.
ILMIY
XABARLAR-**

1995 yildan nashr etiladi
Yilda 6 marta chiqadi

— 2-2023 —

**НАУЧНЫЙ
ВЕСТНИК.
ФерГУ**

Издаётся с 1995 года
Выходит 6 раз в год

R.Arslonzoda, O.Maripov	
O'zbekiston Respublikasida davlat arxivlari faoliyatining takomillashib borishi	318
R.Urazova	
Avesto yashlarida Mitraning sifatleri	325
N.Nizametdinov	
Markaziy Osiyoning Xitoy bilan aloqalari tarixi.....	331
I.Burxonov	
Asomiddin O'rinboev ilmiy merosida Abduxoliq G'ijduvoni tasavvufiy ta'limotiga oid ruq'alarining o'rganilishi.....	338
N.Jumaev	
XIX asr oxiri XX asr boshlarida Buxoro vohasi dehqonchilik madaniyati tarixidan	342
D.Akramov	
Xalq maorifining nazariy asoslari.....	348

ADABIYOTSHUNOSLIK

G.Oripova	
Mustaqillik davri o'zbek lirikasida ritm va ohangdorlik.....	354
I.Baltayeva	
Adabiy vorisiylkning xorij adabiyotida o'rganilishi.....	359
F.Oxunjonova	
XIX asr oxiri va XX asr boshlarida zullisonaynlik an'anasi takomili (Nodim, Xilvatiy, xayratililar ijodi misolida)	362
D.Uralova	
Ulug'bek Hamdamning "Safar" hikoyasida ramziy obrazlar uyg'unligi.....	366
S.Begmatova	
Jahon adabiyotida distopik asar turlariga oid ilmiy-nazariy yondashuvlar	370
A.Yuldashev	
Alisher Navoiy asarlarida so'z tavsifi	374
O.Barziyev	
Farzand taqdiriga murojaat yoki ularga nasihat qilish mavzusiga oid an'anaviy poetik turkumlar	382
D.Sultonova	
Badiiy kriminal asarlar va ularning o'ziga xos xususiyatlari.....	387
S.Alibekova	
O'tkir Hoshimovning hajviy xarakter yaratish mahorati	392
Sh.Sherg'oziyev	
"Boburnoma" matnida foydalanilgan saj'i mutarrafnig ingliz tili tarjimalarida aks ettirilishi	396
X.To'raxonova	
Alisher Navoiyning "Lison ut-tayr" dostonida badiiy tasviriy vositalarning qo'llanilishi	400
D.Hazratkuliyon	
Hozirgi O'zbekiston tojik she'riyatida bediliy uslub an'alariga izdoshlik (Ja'far Muhammad Termiziy she'ri misolida)	403
M.Narziqulov	
Tojik adabiyotida g'azalning mundariyasi va shakli o'zgarishi	410
M.Mirzoyev	
Farzona Xo'jandiy she'rlarida mifologik personajlar badiiy ifodasining xususiyatlari	420

TILSHUNOSLIK

Z.Alimova	
Alisher Navoiyning "Saddi Iskandariy" asaridagi ayrim forscha qo'shma so'zlarning leksik-semantik xususiyatlari haqida	425
O.Nazirova	

**O'ZBEKISTON RESPUBLIKASIDA DAVLAT ARXIVLARI FAOLIYATINING
TAKOMILLASHIB BORISHI****СОВЕРШЕНСТВОВАНИЕ ДЕЯТЕЛЬНОСТИ ГОСУДАРСТВЕННЫХ АРХИВОВ В
РЕСПУБЛИКЕ УЗБЕКИСТАН****IMPROVEMENT OF STATE ARCHIVES ACTIVITY IN THE REPUBLIC OF UZBEKISTAN****Arslonzoda Rahmatjon Arslonboyevich¹, Maripov Oyatillo Mavlonbek o'g'li²****¹Arslonzoda Rahmatjon Arslonboyevich**

– Farg'ona davlat universiteti Jahon tarixi kafedrası professori v. b., tarix fanlari nomzodi

²Maripov Oyatillo Mavlonbek o'g'li

– Farg'ona davlat universiteti “Arxivshunoslik” yo'nalishi talabasi

Annotatsiya

Mustaqillik yillarida O'zbekistonda arxiv ishining rivojlanishi yetarli darajada o'rganilmagan mavzular sirasiga kiradi. Maqolada manbalar va mavjud adabiyotlar asosida istiqol yillarida O'zbekistonda arxiv ishi sohasida ro'y bergan ijobiy o'zgarishlar ochib beriladi. Jumladan, Milliy arxiv fondining tashkil etilishi, arxivlar moddiy-texnika bazasining mustahkamlanishi, arxiv ishiga zamonaviy axborot texnologiyalarining joriy etilishi, arxiv hujjatlarini jamlash va ulardan foydalanish, arxiv muassasalarining noshirlik faoliyati, arxivchi kadrlar tayyorlash tizimining vujudga kelishi kabi masalalar yoritiladi.

Аннотация

Развитие архивного дела в Узбекистане в годы независимости относится к числу малоисследованных тем. В статье на основе источников и имеющейся литературы раскрываются позитивные изменения в архивном деле. В частности, освещаются такие вопросы, как создание Национального архивного фонда, укрепление материально-технической базы архивов, внедрение в архивное дело современных информационных технологий, комплектование и использование архивных документов, издательская деятельность архивных учреждений, подготовка кадров для архивов.

Abstract

The development of archiving in Uzbekistan during the years of independence is one of the poorly researched topics. The article reveals positive changes in archiving on the basis of sources and available literature. In particular, issues such as the formation of the National Archival Fund, strengthening the material and technical base of archives, the introduction of modern information technologies into archiving, the acquisition and usage of archival documents, the publishing activities of archival institutions and training of personnel for archives are covered

Kalit so'zlar: davlat arxivlari, Milliy arxiv fondi, arxivlarning moddiy-texnika bazasi, arxivlarni raqamlashtirish, arxiv hujjatlarining elektron bazasi, arxivlarni jamlash, arxiv hujjatlaridan foydalanish, arxivlarining noshirlik faoliyati, arxivchi kadrlar tayyorlash.

Ключевые слова: государственные архивы, Национальный архивный фонд, материально-техническая база архивов, информатизация архивов, электронная база архивных документов, комплектование архивов, использование архивных документов, издательская деятельность архивов, подготовка кадров-архивистов.

Key words: state archives, the National Archives Fund, material and technical base of archives, informatization of archives, electronic database of archival documents, acquisition of archives, usage of archival documents, publishing activities of archives, training of personnel-archivists.

KIRISH

O'zbekiston mustaqillikka erishganidan so'ng xalqimizning o'z tarixiga bo'lgan qiziqishi beqiyos darajada oshdi. Sovet davrida obdon soxtalashtirilgan Vatanimiz tarixini xolisona, yangi konseptual-metodologik asosda o'rganish muhim ahamiyat kasb etdi. Bu hol xalqning tarixiy xotirasi bo'lmish arxivlar faoliyatini tubdan yaxshilash vazifasini kun tartibiga qo'ydi.

Mustaqillikning dastlabki yillaridan boshlab O'zbekiston Respublikasi Prezidenti va hukumati arxiv ishini takomillashtirishga, davlat arxivlari faoliyatini yanada yaxshilashga jiddiy e'tibor qaratdi. O'tgan yillar mobaynida respublikada arxiv ishining huquqiy asoslari yaratildi [12, b. 69-76], davlat arxivlarining soni oshdi, ularning moddiy-texnika bazasi mustahkamlandi, davlat arxivlarida axborot texnologiyasi joriy etildi, arxivlar uchun kadrlar tayyorlash yo'lga qo'yildi [11, b. 318-329]. Natijada davlat arxivlari faoliyatida tub o'zgarishlar ro'y berdi.

ADABIYOTLAR TAHLILI VA METODLAR

Hozirgi kunga qadar ushbu mavzu tarixchi va arxivshunos olimlar tomonidan maxsus o'rganilmagan. Mavzuga doir ayrim ma'lumotlar M.S.Isaqovning "O'zbekistonda arxiv ishining vujudga kelishi va rivojlanishi" (2012) nomli monografiyasi [23] hamda R.A.Arslonzoda, M.F.Rasulov va N.M.Hamayev [10; 11], D.A.Zaitova [25], Z.A.Saidboboyev, Z.B.Rahmonqulova va J.X.Adilov [28], Z.Suleymanova [31], M.M.Ergasheva [36] lar maqollarida uchraydi. Ammo mazkur nashrlarda istiqloq yillarida O'zbekistonda davlat arxivlarining faoliyati tizimli asosda yoritilmagan.

Maqolani yozishda rasmiy hujjatlar, ya'ni O'zbekistonning arxiv ishiga doir qonunchilik hujjatlari va respublika hukumatining qarorlari asosiy manba bo'lib xizmat qildi. Shuningdek, maqolani tayyorlashda elektron resurslar hamda mavjud ilmiy adabiyotlardan foydalanildi. Qo'yilgan vazifani hal etish jarayonida tarix fanida keng qo'llanilayotgan retrospektiv usul, tizimli yondashuv, muammoviy-xronologik va qiyosiy tahlil kabi metodlardan foydalanildi.

NATILALAR VA MUHOKAMA

Istiqloq yillarida O'zbekiston davlat arxivlari tizimida talay o'zgarishlar ro'y berdi. Dastlab sovet davrida shakllangan 3 ta markaziy davlat arxivi (O'zR Markaziy davlat arxivi, O'zR kino, foto va fono hujjatlar markaziy davlat arxivi, O'zR ilmiy-texnikaviy va tibbiyot hujjatlari markaziy davlat arxivi), Qoraqalpog'iston Respublikasi markaziy davlat arxivi hamda viloyatlar va Toshkent shahar davlat arxivlaridan iborat tizim saqlab qolinganda, viloyat davlat arxivlari filiallarining soni ortib bordi. Masalan, sovet davrida Farg'ona viloyat davlat arxivining Qo'qon va Marg'ilon shaharlarida ikkita filiali mavjud bo'lsa, mustaqillik yillarida Quva, Rishton, Bag'dod, Furqat, Yozyovon va So'x tumanlarida ham yangi filiallar tashkil etilib, ularning soni 8 taga yetdi. Keyinchalik respublikamizda viloyat davlat arxivlari filiallari negizida yangi munitsipal (mahalliy) arxivlar tashkil etildi. QQR MDA, viloyatlar va Toshkent shahar davlat arxivlarining filiallari mustaqil shahar, tuman va tumanlararo davlat arxivlariga aylantirildi. Hozirgi kunda O'zbekistonda 103 ta davlat arxivi faoliyat ko'rsatmoqda. Ulardan 3 tasi milliy, 2 tasi markaziy va 98 tasi esa munitsipal (viloyat, shahar va tuman) arxivlaridir.

Mustaqillik yillarida O'zbekiston Respublikasida *Milliy arxiv fondi (MAF)* tashkil etildi. MAFning tashkil etilishi jamiyatdagi tub o'zgarishlar – bozor munosabatlariga o'tilishi, mulkning davlat tasarrufidan chiqarilishi, xususiy sektorning vujudga kelishi bilan bog'liq edi. Ma'lumki, sovet davrida barcha korxonalar, aksariyat muassasa va tashkilotlar davlatga qarashli bo'lib, ularda yaratilgan hujjatlar ham davlat mulki hisoblangan. Istiqloq yillarida vujudga kelgan xususiy korxonalar, aksiyadorlik jamiyatlari, fermer xo'jaliklari, shuningdek, siyosiy partiyalar va jamoat tashkilotlari tomonidan yaratilgan hujjatlar davlat mulki bo'lmay, balki o'sha yuridik shaxslarning mulki ekanligi qonuniy ravishda e'tirof etildi. Shuning uchun O'zR MAF tarkibiga ham davlat arxiv fondi hujjatlari, ham nodavlat yuridik va jismoniy shaxslarga tegishli hujjatlar kiritilishi belgilab qo'yildi. Hozirgi kunda O'zR MAFga kiruvchi 9,6 mln saqlov birligi ro'yxatga olingan bo'lib, ulardan 552 ming saqlov birligi alohida qimmatli arxiv hujjatlari hisoblanadi [16, b. 35]. Milliy arxiv fondini tashkil etilishi arxiv hujjatlarini hisobga olish, saqlash va ulardan foydalanish ishini yanada yaxshilash imkonini berdi.

Davlat arxivlari faoliyatining samaradorligi ko'p jihatdan ularni *moddiy-texnika bazasi* bilan bog'liqdir. Istiqloq yillarida davlat organlari arxivlar uchun yangi zamonaviy binolar qurish, eski binolarni ta'mirlash, arxivlarni jihozlash, ularni zamonaviy kompyuterlar va boshqa texnik vositalar bilan ta'minlashga katta e'tibor berdilar.

Mustaqillik davrida davlat arxivlariga qabul qilinayotgan hujjatlarning miqdori sezilarli darajada ortdi. Natijada arxivlar uchun yangi binolar va qo'shimcha saqlov xonalari qurish zarur bo'lib qoldi. Davlat buning uchun katta mablag'lar ajratdi. Masalan, faqat 2011-yilning o'zida markazlashtirilgan mablag'lar hisobidan 12 mird 326 mln so'm ajratildi. Natijada O'zbekiston Respublikasi kino, foto va fono hujjatlar markaziy davlat arxivi yangi zamonaviy binoga ko'chib o'tdi. Sirdaryo viloyat davlat arxivi uchun ham barcha sharoitlar mavjud bo'lgan yangi arxiv binosi qurilib, foydalanishga topshirildi. 2012-yilda Andijon va Farg'ona viloyat davlat arxivlari, Asaka va Kattaqo'rg'on shahar arxivlari, Samarqand, Guliston, Xiva va Yangibozor tuman davlat arxivlari uchun yangi qo'shimcha saqlov xonalari qurildi [15, b. 35]. Jami 2009-2016-yillarda davlat arxivlari uchun 22 ta yangi zamonaviy bino qurildi, 5 ta bino kapital ta'mirdan chiqarildi. Bularning hammasi arxiv saqlov xonalari imkoniyatlarini kengaytirib, qo'shimcha ravishda 2,5 mln saqlov birligini qabul

qilish uchun imkoniyati yaratdi [32, b. 54]. Qator viloyat davlat arxivlari sobiq partiya arxivlari binosiga ko'chirildi. Bundan tashqari, arxivlarda muntazam ravishda kapital va joriy ta'mirlash ishlari olib borilmoqda. Natijada davlat arxivlarida hujjatlarni saqlash uchun tobora qo'lay shart-sharoitlar yuzaga kelmoqda.

Respublika hukumati va mahalliy boshqaruv organlari davlat arxivlarini kerakli jihozlar bilan ta'minlashga doimiy e'tibor bermoqdalar. Faqat 2012-yilning o'zida 11 ta davlat arxivida 571,8 mln so'mlik 3 629 pogon metr metall stellajlar o'rnatildi. Shu bilan birga davlat arxivlari 18, 9 mln so'mlik 74 dona o't o'chirish anjomlari, 36 mln so'mlik 951 dona qo'riqlov moslamalari bilan jihozlandi [17, b. 6].

Milliy istiqloq davrida arxivlar faoliyatini *moliyalashtirish* borasida ham ijobiy o'zgarishlar ro'y berdi. Arxiv ishi uchun davlat byudjetidan ajratilgan mablag'lar yildan-yilga ortib bormoqda. Jumladan, 2006-yilda davlat byudjetidan arxiv muassasalari uchun ajratilgan mablag'lar 932,9 mln so'mni tashkil etgan bo'lsa, 2012-yilda 2 mlrd 54 mln so'mni tashkil etdi. Bundan tashqari, bozor iqtisodiyoti sharoitida arxiv muassasalari yuridik va jismoniy shaxslarga pullik xizmat ko'rsatib, o'z hisob raqamiga tobora ko'p mablag' tushirmoqdalar. Ko'rsatib o'tilgan yillar mobaynida arxivlar byudjetdan tashqari ishlab topgan mablag'lar miqdori 570,5 mln so'mdan 4 mlrd 524 mln so'mga ortdi [34, b. 111; 16, b. 35]. Byudjetdan tashqari tushumlar asosan arxivlarning moddiy-texnika bazasini mustahkamlash hamda arxiv xodimlarini moddiy rag'batlantirish uchun sarf etilmoqda.

Mustaqilik yillarida arxiv ishiga zamonaviy axborot texnologiyalari shiddat bilan kirib keldi. Arxivlar zamonaviy kompyuterlar va boshqa axborot vositalari bilan jihozlanmoqda. Masalan, faqat 2006-yilda arxiv muassasalari uchun 33 ta yangi kompyuter, 6 dona faks, 15 ta skaner, 9 dona modem, 21 dona printer, 8 ta nusxa ko'paytirish apparati va 3 dona raqamli fotoapparat xarid qilindi [14, b. 10]. 2012-yilga kelib davlat arxivlarida kompyuterlar bilan ta'minlanganlik darajasi 84 foizga yetdi [15, b. 5].

Davlat arxivlarida hujjatlarning *elektron axborot bankini* yaratishga kirishildi. Arxiv muassasalari internet va boshqa axborot-qidiruv tizimiga ulandi. Bularning hammasi arxiv ishida tub sifat o'zgarishlariga olib keldi.

Hozirgi kunda tadqiqotchilar buyurtma asosida hujjatlarning kseronusxasi yoki elektron nusxasini olish imkoniyatiga ega. Bu ularning qimmatli vaqtlarini tejash imkoniyat bermoqda. Davlat arxivlaridagi kompyuterlarning lokal va internet tizimiga ulanishi arxivlar o'rtasida axborot almashinuvini osonlashtirdi, ular uzoq muddatga cho'zilgan o'zaro yozishma olib borishdan qutuldilar.

Hozirgi kunda "O'zarxiv" agentligining axborot portali (www.archiv.uz) ishga tushirildi va muntazam ravishda yangilanib bormoqda. Bundan tashqari, barcha hududiy arxiv boshqarmalari, shuningdek, O'zbekiston milliy arxivlari, Qoraqalpog'iston Respublikasi va Toshkent shahar markaziy davlat arxivlari, viloyat va shahar davlat arxivlarining veb-saytlari yaratildi. Ularning barchasi internet tizimiga ulandi va elektron pochta orqali axborot almashinuv yo'lga qo'yildi. Arxivlarda shaxsiy tarkibga doir hujjatlarning ham elektron bazasi yaratilmoqda.

Davlat arxivlarida hujjatlarning raqamli elektron sug'urta varianti bazasini yaratishga katta e'tibor berilmoqda. Ma'lumki, sovet davrida hujjatlarning sug'urta nusxalari ularni mikrofilmlashtirish yo'li bilan amalga oshirilgan. Hozirgi kunda bu usul ma'naviy jihatdan eskirdi. Qolaversa, mikrofilmlashtirilgan nusxalarni o'qish uchun maxsus vositalar talab etiladi, bunday vositalar esa hozir kunda sanoat korxonalarini tomonidan ishlab chiqarilmaydi. Mikrofilmlashtirilgan nusxalardan foydalanish ko'zni toliqtiradi, odam sog'ligiga zarar yetkazadi. Shuning uchun O'zbekistonda ham, xorijiy mamlakatlarda ham hujjatlarning elektron sug'urta nusxalarini yaratish muhim ahamiyat kasb etmoqda. Bugungi kunda O'zR MAF o'ta qimmatli hujjatlarning elektron variantlarini yaratishga asosiy e'tibor qaratilmoqda.

Bu borada O'zbekiston davlat arxivlarida rejali ishlar amalga oshirilmoqda. Masalan, 2006-yilda O'zbekiston Respublikasi markaziy davlat arxivida 412 ta saqlov birligi (10 290 kadr), O'zbekiston Respublikasi ilmiy-texnikaviy va tibbiyot hujjatlari markaziy davlat arxivida 104 ta saqlov birligi (7 643 kadr), O'zbekiston Respublikasi kino, foto va fono hujjatlar markaziy davlat arxivida 397 saqlov birligidagi hujjatlarning elektron sug'urta nusxalari yaratildi. 2011-yilga kelib respublika bo'yicha 25 256 saqlov birligidagi matnli hujjatlar (665 215 varaq) va 15 ming foto hujjatlarning elektron nusxalari yaratildi [14, b. 4; 15, 11]. Hozirgi kunga kelib, davlat arxivlarida saqlanayotgan alohida qimmatli hujjatlarning 70 foizi elektron asosga o'tkazildi [32, b. 54].

TARIX

Shunga o'xshash ishlar viloyat davlat arxivlarida ham olib borilmoqda. Jumladan, 2009-yilning 1 yanvariga qadar Farg'ona viloyat davlat arxivida saqlanayotgan 3 632 yig'majildning elektron sug'urta varianti yaratildi [35].

Zamon talablarini e'tiborga olgan holda, hozirgi kunda davlat arxivlariga hujjatlarning asl nusxalari bilan birga ularning elektron varianti ham qabul qilinmoqda. Bundan tashqari, O'zbekistondagi 3 ta milliy arxivda arxiv kataloglarini ham elektron asosga o'tkazish ishlari boshlab yuborildi.

Davlat arxivlarining asosiy vazifalaridan biri – bu arxiv fondlarini doimiy ravishda yangi hujjatlar bilan to'ldirib borishdir. Mustaqillik yillarida *arxiv fondlarini jamlash* bo'yicha keng ko'lamli ishlar olib borildi. Jumladan, 2006-yilning o'zida davlat arxivlariga 192 225 ta saqlov birligidagi matnli hujjatlar, 300 ta saqlov birligidagi ilmiy-texnikaviy hujjatlar, 69 ta hisob birligidagi kino hujjatlar, 210 ta hisob birligidagi ovozli hujjatlar hamda fuqarolarning 4 775 ta saqlov birligidagi shaxsiy kelib chiqish hujjatlari qabul qilindi [14, b. 7]. Hozirgi kunda davlat arxivlarining 9 478 ta doimiy jamlash (to'ldirish) manbalari mavjud [16, b. 39].

Davlat arxivlarida hujjatlarni restavratsiya qilish, ularni saqlash sharoitlarini yaxshilashga doimiy e'tibor berilmoqda. Masalan, 2013-yilda davlat arxivlarida 212 142 varaq qog'oz hujjatlar ta'mirlanib, 76 818 ta saqlov birligidagi hujjatlar muqovalandi, 124 354 ta saqlov birligidagi hujjatlar karton qutilarga joylashtirildi [17, b. 3]. Muntazam ravishda olib borilayotgan bunday ishlar hujjatlarni asrab-avaylab saqlash va ularning umrini uzaytirish imkonini beradi.

Mustaqillik yillarida arxiv xodimlari *hujjatlardan ijtimoiy-huquqiy va ilmiy maqsadlarda foydalanish* borasida ham e'tiborga loyiq ishlar olib bormoqdalar. Jumladan, 2012-yilda 10 308 ta, 2013-yilda esa 10 534 ta mavzuli so'rov bajarildi. Shu ikki yil mobaynida arxiv hujjatlari asosida yaratilgan va efirga uzatilgan teleko'rsatuvlar soni muvofiq ravishda 198 va 208 tani, radioeshittirishlar soni 198 va 249 tani, arxivga uyushtirilgan ekskursiyalar soni 560 va 600 tani, arxiv hujjatlar ko'rgazmalari soni 353 va 397 tani tashkil etdi. Matbuot sahifalarida arxivlar va arxiv ishi haqida chop etilgan maqolalar soni 2012-yilda 339 tani, 2013-yilda esa 359 tani tashkil etdi [17, b. 3].

Istiqlol yillarida arxiv hujjatlaridan ilmiy maqsadlarda foydalanish uchun barcha shart-sharoitlar yaratildi. Sovet davrida maxfiy rejimda saqlangan ko'plab fond va yig'majildlardan foydalanishga ruxsat berilganligi bois arxivga kelayotgan tadqiqotchilarning soni ortib bordi. Ular uchun davlat arxivlarida o'quv zallari tashkil etilgan, tadqiqotchilarga hujjatlardan nusxa ko'chirib berish yoki hujjatlarning elektron variantini taqdim etish kabi xizmatlar yo'lga qo'yilgan.

Arxiv ishida *noshirlik faoliyati* ham muhim o'rin egallaydi. Istiqlol yillarida R.T.Shamsutdinov rahbarligida tayyorlangan va nashr etilgan hujjatlar to'plamlarida sovet davrida amalga oshirilgan qishloq xo'jaligini jamoalashtirish va qatag'onlik siyosati jarayonini ochib beruvchi arxiv hujjatlari jamlandi [33]. Ushbu to'plamlarning e'tiborga loyiq jihati shundaki, ularda nafaqat O'zbekiston, balki Rossiya Federatsiyasi va Ukraina arxivlarida saqlanayotgan hujjatlar ham o'rin olgan.

O'zbekiston Fanlar akademiyasi Tarix instituti xodimlari Rossiya imperiyasi va sovet davrida Turkiston o'lkasi va O'zbekiston SSR da ta'lim tizimining rivojlanishiga doir hujjatli manbalarni o'zida mujassam etgan "Ta'lim tarixi arxiv manbalarida" [24] to'plamini tayyorlab, nashr ettirdilar.

Nashr etilayotgan ayrim kitoblarda ba'zi arxivlar haqida atroflicha ma'lumot berish asosiy vazifa qilib qo'yilgan. Masalan, Qashqadaryo viloyatida arxiv ishi tarixi, shuningdek, viloyat davlat arxivi va uning filiallari haqida "Arxivlar – tarix ko'zgusi" nomli risoladan yetarli ma'lumotlar olish mumkin [21].

Davlat arxivlarida hujjatlarning ilmiy-ma'lumot apparatini yaratish bilan bog'liq ishlar olib borilmoqda. Bu borada Toshkent shahar markaziy davlat arxivi va Buxoro viloyat davlat arxivi fondlari haqida axborot beruvchi ma'lumotnoma-kitoblarni ko'rsatib o'tish o'rinlidir [26; 30]. Shuni qayd etish kerakki, sovet davrida viloyat va shahar davlat arxivlari bo'yicha ma'lumotnoma-kitoblar nashr etilgan emas. Hozirgi kunda barcha viloyat davlat arxivlari bo'yicha shunday kitoblarni tayyorlash va nashr etish kun tartibidagi vazifalardan biridir.

Mustaqillik yillarida davlat arxivlari tomonidan nashr etilgan ayrim adabiyotlar o'z mazmun va mohiyatiga ko'ra arxiv ishi yoki ish yuritish jarayonida qo'llanilishi mumkin bo'lgan uslubiy tavsiyalardan iborat. Jumladan, O'zR KFFH milliy arxivi xodimlari tomonidan rus tilida nashr etilgan to'plam ma'ruzalar matnidagi tashkil topgan bo'lib, unda korxonalar va muassasalarda ish yuritishning

zamonaviy usullari haqida soʻz yuritiladi [29]. Jizzaxlik arxivchilar tomonidan nashr etilgan uslubiy tavsiyalar esa davlat arxivlarida MAF hujjatlarini hisobga olish masalalariga bagʻishlangan [22].

Mustaqillik yillarida “Oʻzarxiv” agentligi tomonidan muntazam ravishda “Axborotnoma” nashr etilib kelinmoqda. 2007-yildan boshlab ushbu nashr “Arxiv ishi va ish yuritish sohasi axborotnomasi” deb atalmoqda. Ushbu axborotnoma sahifalarida Oʻzbekiston arxivlari faoliyatidagi yangiliklar yoritib borilmoqda, shuningdek, arxiv ishini yanada yaxshilash boʻyicha direktiv hujjatlar va uslubiy maslahatlar chop etilmoqda [14; 15; 16; 17]. 2021-yilda “Oʻzarxiv” agentligi tomonidan “Oʻzbekiston arxivlari” deb nomlangan rangli maʼlumotnoma-kitob nashr etildi. Ushbu kitobda “Oʻzarxiv” agentligi haqida, respublikadagi milliy, markaziy va minitsipial (viloyat, shahar va tuman davlat) arxivlar hamda shahar va tumanlardagi shaxsiy tarkib davlat arxivlari toʻgʻrisida umumiy maʼlumotlar berilgan [38].

Milliy istiqloq yillarida arxivlar uchun *kadrlar tayyorlash* yoʻlga qoʻyildi. Hozirgi kunda 28 ta kasb-hunar kollejlari “Hujjatshunoslik va arxivshunoslik” ixtisosligi boʻyicha oʻrta maxsus maʼlumotli kadrlar tayyorlanmoqda. Oʻzbekistonda 6 ta oliy oʻquv yurti – Oʻzbekiston Milliy universiteti, Samarqand, Buxoro, Namangan, Andijon va Fargʻona universitetlarida “Arxivshunoslik” yoʻnalishi boʻyicha bakalavrlar, Milliy universitetda esa “Hujjatshunoslik va arxivshunoslik” mutaxassisligi boʻyicha magistrlar tayyorlash yoʻlga qoʻyilgan. 2014-yilda Toshkent axborot texnologiyalari institutida “Elektron kutubxona va arxivlar” yoʻnalishi boʻyicha bakalavrlar tayyorlash boshlandi. Natijada yildan-yilga davlat arxivlari va boshqa arxiv muassasalarini malakali kadrlar bilan taʼminlash yaxshilanib bormoqda. Hozirgi kunda Oʻzbekiston arxiv muassasalarida 1 400 nafar xodim mehnat qilmoqda. Ulardan 25 foizi oliy, 53 foizi esa oʻrta maxsus maʼlumotga ega. Arxiv xodimlarining 5 foizi mutaxassislik boʻyicha oliy maʼlumot egasidir [32, b. 55].

Arxiv ishi va ish yuritish sohasi xodimlarining malakasini oshirish maqsadida Oʻzbekiston milliy arxivlari va Fargʻona viloyat davlat arxivi qoshida “Ijro nazorati va ish yuritish mahorati” hamda “Idoraviy arxivlar faoliyatini tashkil etish asoslari” oʻquv kurslari faoliyat yuritmoqda. Ularning bazasida hozirgi kunga qadar turli tashkilot va muassasalarning 3 mingdan ziyod xodimlari oʻz malakalarini oshirdilar [32, b. 55]. Bundan tashqari, Oʻzbekiston kino, foto va fono hujjatlar milliy arxivi tomonidan arxivchi va ish yurituvchi xodimlarning onlayn tarzda malaka oshirishlari uchun masofaviy taʼlim portali tashkil etilib, www.sdo.archive.uz manziliga joylashtirildi.

2019-yil 20-sentabrda OʻzR Prezidenti “Oʻzbekiston Respublikasida arxiv ishi va ish yuritishni takomillashtirish chora-tadbirlari toʻgʻrisida”gi Farmoni imzoladi. Unga koʻra, Vazirlar Mahkamasi huzuridagi “Oʻzarxiv” agentligining nomi “Oʻzbekiston Respublikasining “Oʻzarxiv” agentligi” deb oʻzgartirildi. Natijada bu tuzilmaning boshqaruv tizimidagi maqomi ancha oshdi. Ushbu farmonga muvofiq, respublika markaziy davlat arxivlari hamda Toshkent shahar davlat arxivining maqomi oʻzgardi. 3 ta markaziy davlat arxiviga milliy arxiv maqomi berildi. Jumladan, OʻzR MDA negizida Oʻzbekiston Milliy arxivi, OʻzR KFFH MDA negizida Oʻzbekiston kino, foto va fono hujjatlar milliy arxivi; OʻzR ITTH MDA negizida Oʻzbekiston ilmiy-texnikaviy va tibbiyot hujjatlarini milliy arxivi tashkil etildi. Toshkent shahar davlat arxivining nomi Toshkent shahar markaziy davlat arxivi deb oʻzgartirildi. Bundan tashqari, Farmonda “Oʻzarxiv” agentligi huzurida muassasa shaklida Arxiv ishi va ish yuritish boʻyicha malaka oshirish ilmiy-metodik markazi hamda yuridik shaxs maqomiga ega boʻlmagan Arxiv ishini rivojlantirish Jamgʻarmasini tashkil etish nazarda tutildi. Farmonda Qoraqalpogʻiston Vazirlar Kengashi, viloyatlar va Toshkent shahar hokimliklari zimmasiga shahar va tuman hokimliklari qoshida tashkil etilgan idoralararo shaxsiy tarkib arxivlarini “Oʻzarxiv” agentligi tasarrufiga oʻtkazish, shahar va tuman arxivlaridagi tarixiy hujjatlarni viloyat davlat arxivlariga oʻtkazish hamda shahar va tuman arxivlari negizida shaxsiy tarkib boʻyicha davlat arxivlarini tashkil etish vazifasi yuklatildi [7; 8].

“Arxiv ishi toʻgʻrisida”gi qonun hamda boshqa meʼyoriy hujjatlarda belgilangan keng qamrovli vazifalarni hayotga tadbiiq etish arxivlarni boshqaruvchi vakolatli davlat organlari faoliyatini tubdan yaxshilashni talab qildi. Shu boisdan koʻrsatib oʻtilgan sanada Prezidentning “Oʻzbekiston Respublikasi “Oʻzarxiv” agentligining faoliyatini takomillashtirish toʻgʻrisida”gi Qarori ham imzolandi. Qarorda “Oʻzarxiv” agentligi hozirgi davrdagi eng asosiy vazifalari belgilab berildi [9].

Ushbu qaror bilan Oʻzbekiston Respublikasida 2020-2025-yillarda arxiv ishi va ish yuritishni yanada rivojlantirish Dasturi tasdiqlandi. Ayni vaqtda besh yil mobaynida davlat arxivlari binolari va saqlovxonalarini qurish hamda mavjud arxiv binolarini rekonstruksiya qilish rejasi qabul qilindi. Mazkur Qarorda arxiv muassasalari va tashkilotlari uchun yangi shtat birliklari ajratildi, barcha

TARIX

toifadagi arxiv xodimlarining lavozim maoshini belgilashda tarif koeffitsienti 1,6 baravarga oshirgan holda qo'llanilishi belgilandi. "O'zarxiv" agentligi markaziy apparati va hududiy boshqarmalar xodimlariga sohada uzoq muddat mehnat qilganligi uchun ustama haq berilishi belgilab qo'yildi [7; 8].

O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2020-yil 10-noyabrda qabul qilingan 706-sonli qarori bilan "O'zbekiston Respublikasi davlat arxivlari o'quv zallarida foydalanuvchilarning arxiv hujjatlari bilan ishlash tartibi to'g'risidagi Nizom" tasdiqlandi. Nizomda arxiv hujjatlaridan foydalanuvchilarning huquq va majburiyatlari, arxiv o'quv zallarida hujjatlardan foydalanish tartibi belgilandi.

XULOSA

Shunday qilib, mustaqillik yillarida O'zbekistonda davlat arxivlari faoliyatida katta ijobiy o'zgarishlar ro'y berdi. Davlat arxivlarning soni ko'paydi, ularning moddiy-texnika bazasi mustahkamlandi. Zamonaviy talablarga javob beradigan qator arxiv binolari va saqlov xonalar qurildi. Arxiv sohasi uchun oliy va o'rta maxsus ma'lumotli kadrlar tayyorlash yo'lga qo'yildi. Arxiv ishiga keng miqyosda axborot texnologiyalari joriy etildi. Davlat arxivlarida hujjatlarni saqlashning maxfiylik rejimi susaydi, natijada hujjatlardan ilmiy va amaliy maqsadlarda foydalanish ko'lami kengaydi. Arxiv ishi sohasida xalqaro hamkorlik yo'lga qo'yildi.

Bularning hammasi arxiv ishini tubdan yaxshilash imkoniyatini berdi. Hozirgi kunda O'zbekiston arxiv xodimlari xalqning ma'naviy boyligi bo'lmish arxiv hujjatlarini ko'z qorachig'idek asrash, ulardan ilmiy va amaliy maqsadlarda foydalanishni tashkil etish kabi vazifalarni sharaf bilan uddalab kelmoqdalar.

ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. Архивлар тўғрисида: Ўзбекистон Республикасининг 1999 йил 15 апрель Қонуни // Ўзбекистоннинг янги қонунлари. 21-сон. – Тошкент: Адолат, 1999. Б. 184-193.
2. Архив иши тўғрисида: Ўзбекистон Республикасининг Қонуни // Ўзбекистон Республикаси қонун ҳужжатлари тўплами. 2010 йил, 24-25-сон. – Б. 4-16.
3. Ўзбекистон Республикасида архив ишини бошқаришни такомиллаштириш тўғрисида: Ўзбекистон Республикаси Вазирлар Маҳкамасининг 2004 йил 3 февраль қарори // Ўзбекистон Республикаси қонун ҳужжатлари тўплами. 5 (89)-сон. 2004, февраль. – Тошкент: Ўзбекистон Республикаси адлия вазирлиги, 2004. – Б. 7-9.
4. Ўзбекистон Республикасининг 2004 йил 30 апрелда қабул қилинган «Ўзбекистон Республикасининг айрим қонун ҳужжатларига ўзгартишлар ва қўшимчалар киритиш тўғрисида»ги 621-II-сонли Қонуни // Ўзбекистон Республикаси Олий Мажлисининг Ахборотномаси. 2004. № 5. 90-модда.
5. Ўзбекистон Республикасида архив ишини янада ривожлантиришга доир қўшимча чора-тадбирлар тўғрисида: Ўзбекистон Республикаси Вазирлар Маҳкамасининг 2008 йил 26 август қарори // Ўзбекистон Республикаси қонун ҳужжатлари тўплами. 35-36 (327-328)-сон. 2008, август-сентябрь. – Toshkent: Ўзбекистон Республикаси адлия вазирлиги, 2008. – Б. 12-20.
6. Ўзбекистон Республикасида архив ишини такомиллаштириш тўғрисида: Ўзбекистон Республикаси Вазирлар Маҳкамасининг 2012 йил 5 апрель қарори // Ўзбекистон Республикаси қонун ҳужжатлари тўплами. 15 (515)-сон. 2012 йил, 16 апрель. – Тошкент: Ўзбекистон Республикаси адлия вазирлиги, 2012. – Б. 124-132.
7. О мерах по совершенствованию архивного дела и делопроизводства в Республике Узбекистан: Указ Президента Республики Узбекистан № УП-5839 от 20 сентября 2019 г. // lex.uz/docs/4523388
8. O'zbekiston Respublikasida arxiv ishi va ish yuritishni takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida: O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 20-sentyabrdagi Farmoni // Ozbekiston arxivlari [Matn] / U.Yusupov, A.Aliyev. – Toshkent: TASVIR, 2021. – B. 4-6.
9. O'zbekiston Respublikasi "O'zarxiv" agentligining faoliyatini takomillashtirish to'g'risida: O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 20-sentabrdagi Qarori // Ozbekiston arxivlari [Matn] / U.Yusupov, A.Aliyev. – Toshkent, TASVIR, 2021. – B. 7-9.
10. Арслонзода Р.А. Современная система архивов в Республике Узбекистан // Научный вестник ФерГУ. 2017. № 1. – С. 38-42.
11. Арслонзода Р.А., Расулов М.Ф., Хамаев Н.М. Мустақиллик йилларида Ўзбекистонда архив иши // "Фарғона водийси тарихи янги тадқиқотларда" мавзусидаги III республика илмий анжумани материаллари. Фарғона шаҳри, 2014 йил 30 май. – Фарғона, 2014. – Б. 318-329.
12. Арслонзода Р.А. Истиклол йилларида Ўзбекистонда архив иши ҳуқуқий асосларининг яратилиши // FarDU: Ilmiy xabarlar. 2022. № 2. – Б. 69-76.
13. Архивлар // Ўзбекистон Миллий Энциклопедияси. 1-жилд. – Тошкент: "Ўзбекистон Миллий энциклопедияси" Давлат илмий нашриёти, 2000. – Б. 437-438.
14. Arxiv ishi va ish yuritish sohasi axborotnomasi. № 37.
15. Arxiv ishi va ish yuritish sohasi axborotnomasi. № 45.
16. Arxiv ishi va ish yuritish sohasi axborotnomasi. № 46.
17. Arxiv ishi va ish yuritish sohasi axborotnomasi. № 50.

18. Архив – тарих кўзгуси: Архив иши ва иш юритишга оид меъёрий-ҳуқуқий ҳужжатлар тўплами / Тўплаб нашрга тайёрловчи Ю.Камолов. – Фарғона: “Фарғона” нашриёти, 2021.
19. Боровкова А. Новые перспективы в архивном деле. 03.02.2021 // <https://yuz.uz/ru/news>
20. Боровкова А. Архивы – символы общественной прозрачности // Правда Востока. 2021. 23 октября.
21. Бўтаев А., Насриддинов К. Архивлар – тарих кўзгуси. – Тошкент, 1999; Қарши, 2006.
22. Давлат архивларида Миллий архив фонди ҳужжатларининг ҳисоби бўйича услубий тавсиялар. – Жиззах, 2004.
23. Исакова М.С. Становление и развитие архивного дела в Узбекистане. – Ташкент: Университет, 2012.
24. История образования в архивных источниках. – Ташкент, 2015.
25. Зайтова Д.А. Развитие архивного дела в Республике Узбекистан // <https://vestarchive.ru/arhivovedenie/4017-razvitiie-arhivnogo-dela-v-respyblike-uzbekistan.html>
26. Краткий справочник по фондам Государственного архива Бухарской области. – Бухара, 2008.
27. Махкамов А.В. Открытие нового архивного здания в Ташкенте // Отечественные архивы (Москва). 2016. № 6.
28. Саидбобоев З.А., Рахманкулова З.Б., Адилов Ж.Х. Подготовка кадров архивистов в Узбекистане // docplayer.com
29. Современные основы и культура делопроизводства. – Ташкент, 2007.
30. Справочник по фондам Государственного архива г.Ташкента. Под рук. Д.Г.Остроумовой. – Ташкент, 1992.
31. Сулейманова З. История архивного дела в Узбекистане и перспективы его развития // <https://www.archive.uz/post/istoriya-arkhiwnogo-dela-w-uzbekistane-i-perspektiw-yego-razwitiya>
32. Усмонов А. Ўзбекистонда архив ишининг истиқболлари // Инфолиб: Ахборот-кутубхона ахборотномаси. 2017. № 1. Б. 54-55.
33. Трагедия среднеазиатского кишлака: коллективизация, раскулачевание, ссылка. Тт. 1-3. – Ташкент, 2002; Репрессия (1937-1938). – Ташкент, 2005
34. Фан, таълим, маданият ва бизнес соҳаларида интернет ва ахборот ресурсларидан фойдаланиш: Конференция материаллари. – Фарғона, 2008.
35. Фарғона вилоят давлат архиви паспорти. 01.01.2009.
36. Эргашева М.М. Архивное дело в независимом Узбекистане. 2015 // <https://cyberleninka.ru/article/n/arhivnoe-delo-v-nezavisimom-uzbekistane>
37. Ҳайитов Ш.А., Ҳамроев А.Ҳ. Ўзбекистон Республикаси архив қонунчилиги. – Бухоро, 2008.
38. Ozbekiston arxivlari [Matn] / U.Yusupov, A.Aliyev. – Toshkent, TASVIR, 2021.
39. <https://lex.uz/docs>
40. <https://uza.uz/ru/posts>
41. <https://www.norma.uz/uz>